Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Dramatik asarlar matnida paremiologik birliklar xususida

Nurislom Iskandarovich Khursanov*

nurislomxursanov@uzswlu.uz

✉ nurislomkhursanov92@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda dramatik asar tili tarkibidagi paremiologik vositalar — maqol va matallarning lingvopragmatik xususiyatlari ingliz va o’zbek dramalari qiyosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda paremiyalarning nazariy tabiati, tasnifi, dramatik diskursdagi kognitiv-diskursiv va milliy-madaniy funksiyalari, shuningdek ingliz va o’zbek dramalarida maqollarning struktur-sintaktik farqlari ko’rib chiqiladi

Kalit so‘zlar

paremiologik birlik, maqol, matal, dramatik diskurs, frazeologik birlik, lingvopragmatika.

DOI: 10.5281/zenodo.23278158

KIRISH

Dramatik asar tili nafaqat individual-badiiy uslubni, balki xalq donishmandligining jamlangan ifodasi bo'lgan paremiologik birliklarni ham o'zida mujassam etadi. Paremiya atamasi yunoncha párf + oĭmē so'zlaridan tuzilib, dastlab she'r yoki qo'shiq bilan bog'liq ijro birligini anglatgan [1]. H. Berdiyorovning “O'zbek tilining paremiologik lug'ati”da ta'kidlanishicha, paremiologiya maqol, matal, aforizm kabi iboralarni ikki planda — adabiyotshunoslik (xalq og'zaki ijodi mahsuli sifatida, unda o'xshatish, tashbeh, metafora, qofiyalash kabi badiiy vositalar mavjudligi bois) va tilshunoslik (gap qurilishi, mazmuni, intonatsiyasi jihatidan) nuqtai nazaridan o'rganadi [2, 13].

Dramatik diskurs — personajlar nutqi orqali voqelikni bevosita ifodalovchi matn turi bo'lgani sabab, unda paremiyalarning qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi: ular orqali qahramon xarakteri, ijtimoiy mavqei, milliy mansubligi va kommunikativ niyati ochib beriladi. V.M. Mokienko ta'kidlaganidek, “maqollar ortida xalqlarning ko'p asrlik donoligi, butun avlodlar tajribasi yotadi” va maqoldan muvaffaqiyatli foydalanish “vaziyatni minimal vositalar bilan, maksimal semantik imkoniyatlar bilan to'g'ri va qisqacha tavsiflashga imkon beradi” [3]. Mavzuning dolzarbligi shundaki, ingliz va o'zbek dramalarida paremiyalarning qo'llanilish chastotasi, struktur-sintaktik qurilishi va pragmatik yuki qiyosiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan, garchi bu ikki xalq dramaturgiyasi tilidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash lingvomadaniyatshunoslik va qiyosiy tilshunoslik uchun katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi — dramatik asar tilida paremiologik vositalarning tavsifini, funksiyalarini va struktur xususiyatlarini ingliz va o'zbek dramalari qiyosida yoritishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun paremiya tushunchasining lisoniy-nazariy tabiati yoritildi, paremiologik birliklarning dramatik diskursdagi funksiyalari aniqlandi, ingliz va o'zbek dramalarida maqollarning struktur-sintaktik xususiyatlari qiyoslandi hamda nazariy xulosalar aniq dramatik matn misolida dalillandi; tadqiqot qiyosiy-tipologik va tavsifiy tahlil metodlariga tayangan holda olib borildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot qiyosiy-tipologik va tavsifiy tahlil metodlariga tayangan holda olib borildi. Tahlil materiali sifatida ingliz va o'zbek dramatik asarlari tanlab olindi; o'zbek tilidagi material sifatida ”Kelinlar qo'zg'oloni” pyesasi tahlil qilindi, ingliz tilidagi material esa xalq maqollaridan foydalanilgan bir qator dramatik matnlarni o'z ichiga oldi.

G.L. Permyakov nazariyasiga ko'ra, maqollar uchta aniq belgilangan avtonom strukturaviy rejaga ega: lingvistik (kompozitsion) tuzilish rejasi, mantiqiy (semiotik) tuzilish rejasi va reallik rejasi [4]. Bundan kelib chiqib, maqol va matallarni ham lisoniy birlik, ham folklor matni sifatida qarash mumkin: paremiya — nutqda mustahkamlangan, so'zlashuvchi jamoaning ijtimoiy-madaniy merosiga kiruvchi, sodda yoki qo'shma gapga mos keladigan qisqa jumladan iborat frazeologik birlikdir. A. Hojiyev ta'rifiga ko'ra, “maqol — chuqur ma'noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik belgi xususiyatlarga ega bo'lgan folklor janri” bo'lib, unda “xalqning ko'p yillik tajribalari, hodisalarga bergan bahosi aks etadi” [5]. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida esa maqol — “xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap”, “muayyan ritmik shaklga ega” va “asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan” hodisa sifatida ta'riflanadi [6].

Paremiyalarning yagona umumqabul qilingan tasnifi hozircha mavjud emas. Ispan paremiologiya maktabining asoschisi Julia Sevilla Muñoz buni “paremiologik dunyoga kirgan har qanday odam duch keladigan” — ”hamma joyda hukmronlik qiladigan konseptual chalkashlik” deb ataydi [7]. Shunga qaramay, adabiyotlarda to'g'ri paremiyalar, satirik-yumoristik paremiyalar, ilmiy paremiyalar, targ'ibot paremiyalari, arxaik yoki dialektal paremiyalar va kvaziparemiyalar kabi tasniflash keng tarqalgan. Bu tasnif shuni ko'rsatadiki, paremiologik birliklar diaxroniya (tarixiy o'zgaruvchanlik) va sinxroniya (bir davr doirasidagi variativlik) nuqtai nazaridan ham farqlanadi.

Natijalar va muhokama

Paremiologik birliklarning dramatik diskursdagi vazifasi ikki yirik funksional yo'nalishga ajratiladi: kognitiv-diskursiv funksiya va milliy-madaniy funksiya. Ushbu ikki funksiya doirasida qahramon ruhiyati, xarakteri va kommunikativ maqsadini ifodalash kabi vazifador jihatlar kelib chiqadi; milliy-madaniy funksiyaga muvofiq esa paremiya aynan muayyan millat e'tiqodi, xatti-harakati, turmush tarzi va oilaviy qadriyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Dramatik matnlar ustida olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maqollarning qo'llanilishi qahramonning xarakter-xususiyatlarini yoritish, ironiyani ifodalash, qahramonlar o'rtasidagi kommunikativ aloqada kommunikativ maqsadni yoritish hamda qahramon nutqining pragmatik dasturini ifodalash kabi nutqiy talablar bilan voqelanadi. Bunda maqollarning tub zamirida yotgan ibrat va yaxshilikka undash mazmuni bilan bir qatorda istehzo, kesatiq va satirik ma'no ifodalashda ham asosiy rol o'ynashi kuzatiladi.

O'zbek dramaturgiyasida bu qonuniyat yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Kelinlar qo'zg'oloni” dramasida maqollarning umumiy soni 23 tani tashkil etib, ularning asosiy qismi, birinchi navbatda, Bashorat personaji nutqida obraz xarakterini yoritish va satirik mazmunni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bu — o'zbek dramalarida paremiyalarning salmog'i ingliz dramalariga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatuvchi muhim dalildir; bunda maqollar shunchaki ekspressivlikni oshiruvchi qo'shimcha birlik emas, balki asosiy fikrni ifodalovchi mustaqil vosita sifatida xizmat qiladi.

Qiyoslangan tillarda maqollarning struktur tuzilishi, asosan, inkor + buyruq yoki tasdiq + buyruq formalarida uchraydi. O'zbek dramatik matnlarida taqiqlovchi konstruksiyalar ”-ma”/”yo'q” fe'l shakllari, shuningdek ”-sin”/”-gin” qo'shimchali buyruq shakllari orqali ifodalanadi va hech qanday harakatni bajarmaslik rag'batini aniq bildiradi; shuningdek, inkor + sabab + oqibat konstruksiyasi ham keng qo'llaniladi, bunda vaziyatning kutilgan oqibatini oldindan prognoz qilishga e'tibor qaratiladi. Faqat inkor konstruksiyali maqollar esa implitsit tarzda maslahat berish yoki da'vat etish mazmunida ishlatiladi. Ingliz tilida inkor konstruksiyali maqollar, aksincha, buyruqni emas, balki chegaralash yoki muayyan xatti-harakatlarni cheklash mazmunini ifodalaydi. Tadqiq qilingan dramalarda quyidagi modellar aniqlangan: inkor + shart *(”If you can't beat them, join them”)*, inkor + ta'kid *(”Beauty doesn't make the pot boil”)*, inkor + ishora *(”You can take the boy out of the country, but you can't take the country out of the boy”)* va inkor + buyruq *(”If it ain't broke, don't fix it”; ”Don't*

cross the bridge till you come to it”; ”Don't look a gift horse in the mouth”). Alohida guruhni ”imkonsiz + infinitiv” modeli bo'yicha tuzilgan, *”You can't”* bilan boshlanuvchi maqollar tashkil etadi. Ushbu qiyos shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek dramalarida til, davr va etnik jihatdan umumiylik deyarli yo'q, biroq asosiy g'oya va obraz xarakteristikasini yoritishda qo'llaniluvchi vositalarning tanlanishida ma'lum umumiyliklar mavjud — bu esa paremiologik tafakkurning universal kognitiv asosga ega ekanini tasdiqlaydi.

Paremiya tabiatini yoritishda turli tadqiqotchilar turlicha yondashgan. V. Mider maqolni ”xalqning qisqa, umumiy ma'lum bo'lgan hikmati, haqiqati, axloqiy va an'anaviy qarashlarni majoziy, qat'iy va esda qoladigan hamda avloddan avlodga o'tadigan shaklda o'z ichiga olgan jumlasi” deb ta'riflagan [8]. Neal R. Norrik esa maqolni “umumiy ma'noga ega bo'lgan an'anaviy, so'zlashuv, didaktik janr; potensial erkin so'zlashuv burilishi, afzalroq majoziy ma'noga ega so'zlar yig'indisi” sifatida belgilaydi [9]. Barbara Kirshenblatt-Gimblett fikricha, maqollarning ”asosiy ma'nosi” yo'q — ular o'z-o'zidan bir ma'noga ega emas, balki ularga qo'shimcha ma'no suhbatdoshlarning talabi va muloqot konteksti orqali yuklanadi; u maqolni sintaktik noaniqlik, leksik noaniqlik va ironiyaga egalik yoki ega emaslik nuqtai nazaridan talqin qiladi [10]. Djin L. Briggs esa maqol ijrosini sakkiz omil — bog'lovchi ibora, ega shaxsi, kotativ jihat, maqol matni, maxsus assotsiatsiya, umumiy ma'no, kontekstga aloqadorlik va tasdiqlash — orqali tavsiflaydi va bu xususiyatlarni maqol ijrosining ajralmas qismi deb hisoblaydi [11]. J.F. Kindstrand va J. Russo ta'kidlashicha, ”maqolning ta'rifi ko'plab fan olimlarini asrlar davomida izlanishga undab kelgan” — Aristoteldan to hozirgi kungacha bu borada bir-biriga o'xshamagan ko'plab ta'riflar taklif qilingan [12]. Bu xilma-xillik paremiologiyaning nafaqat tilshunoslik, balki folklorshunoslik, antropologiya va kognitiv fanlar chorrahasidagi murakkab, ko'p qirrali tadqiqot sohasi ekanini ko'rsatadi.

XULOSA

Paremiologik birliklar dramatik asar tilining ajralmas va funksional jihatdan yuklangan qismidir. Ular orqali dramaturg qahramon xarakterini, ijtimoiy mavqeini, ironik yoki satirik munosabatini ixcham va ta'sirchan shaklda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ingliz va o'zbek dramalarida til, davr va etnik jihatdan umumiyliklar deyarli bo'lmasa-da, paremiyalarning asosiy funksional vazifalari — xarakter yaratish, kommunikativ maqsadni ifodalash, ironiya va pragmatik dasturni ochish — ikkala dramaturgiyada ham o'xshash namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, struktur-sintaktik jihatdan farqlar ham aniq ko'zga tashlanadi: o'zbek dramalarida inkor konstruksiyali maqollar ko'proq buyruq-tavsiya ma'nosini bersa, ingliz dramalarida ular ko'proq cheklash-chegaralash mazmunini beradi. O'zbek dramaturgiyasida maqollarning nisbatan yuqori salmog'i milliy og'zaki ijod an'analarining dramatik matnga chuqur singib ketganidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda, paremiologik vositalarni qiyosiy o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki ikki xalq madaniyati, mentaliteti va qadriyatlar tizimini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bu yo'nalishdagi keyingi tadqiqotlar dramatik tarjima nazariyasi va qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ham amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Babiniotis, G. (1998). Dictionary of Modern Greek (Etymology of the word ”paroimia”). Athens: Lexicology Centre. 2064 p.

[2] Berdiyorov, H., & Rasulov, R. (1984). O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi. 288 b.

[3] Мокиенко, В. М. (1975). В глубь поговорки: Рассказы о происхождении крылатых слов и образных выражений. Москва: Просвещение. 176 с.

[4] Пермяков, Г. Л. (1970). От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише). Москва: Наука. 240 с.

[5] Hojiyev, A. (2002). Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 164 b.

[6] Khursanov, N. I. (2025, December 12). Ecolinguistics in the anthropocentric paradigm: Research object and purpose. InConferences, 1(8), 780–783.

[7] Sevilla Muñoz, J. (1993). Spanish paremias: Classification, definition, and French correspondence. Paremia, (2), 15–20. Madrid.

[8] Mieder, W. (2004). Proverbs: A handbook. Westport, Connecticut; London: Greenwood Press. 304 p.

[9] Norrick, N. R. (1985). How proverbs mean: Semantic studies in English proverbs. Amsterdam: Mouton Publishers. 213 p.

[10] Kirshenblatt-Gimblett, B. (1973). Toward a theory of proverb meaning. Proverbium, (22), 821–827. Helsinki.

[11] Briggs, C. L. (1988). The eight factors of proverb performance. In Competence in performance: The creativity of tradition in Mexicano verbal art (pp. 101–142). Philadelphia: University of Pennsylvania Press.

[12] Kindstrand, J. F. (1978). The Greek concept of proverbs. Eranos, 76, 71–85. Uppsala.

[13] Xursanov, N. I. (2025). Dramatik diskurs: Kognitiv, pragmatik va lingvokulturologik tavsif (Monografiya). Toshkent: EXISTENTIUM-PRINT. 250 b.